


## FARG'ONA VILOYATIDA MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARI FAOLIYATI TO'G'RISIDA

2017 yilda madaniyat va saʼnat muassasalari rivojlanishining asosiy koʻrsatkichlari davlat statistika hisoboti shakllari maʼlumotlari asosida keltirilgan boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasining kutubxona tizimiga kiruvchi muassasalar, muzeylar, teatrlar, konsert tashkilotlari, sirklar, hayvonot bogʻlari, madaniyat va istirohat bogʻlari, madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatining asosiy koʻrsatkichlari maʼlumotlari kiritilgan.

Fargʻona viloyatida teatrlar soni 4 ta boʻlib, ularda berilgan spektakllar soni 1052 ta, teatrga kelgan tomoshabinlar soni esa 156.8 ming kishini tashkil etadi.


*1-rasm*

### 2017 yilda teatrlar tarmogʻi va faoliyati



2017 yilda hududlar boʻyicha shtatdagi artist xodimlar va shtatdan tashqari ishlovchilar jami 111 ta boʻlib, ulardan ayollar 35 tadir, yani Fargʻona shahrida 63 ta ishlovchilar soni, ulardan ayollar 29 ta boʻlsa, Qoʻqon shahrida esa 48 ta artist xodimlar boʻlib, ulardan 6 tasini ayollar tashkil qiladi.


## 2017 yilda xududlar bo'yicha teatr xodimlari soni



2017 yilda faoliyat turlari bo'yicha konsert tashkilotlari soni jami 5 ta bo'lib, ulardan filarmoniyalar 2 ta, gastrol-konsert tashkiloti 2 ta va mustaqil jamoalar soni 1 tani tashkil etadi. Konsert tashkilotlarini konsertlar soni jami 381 ta, gastrol-konsert tashkilotida 158 ta va mustaqil jamoalarda 90 ta konsert berildi. Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar soni 217.9 ming kishini bo'lib, ulardan qishloq aholisi 94.4 ming kishini tashkil etadi.


3-rasm

## 2017 yilda faoliyat turlari bo'yicha konsert tashkilotlarining tinglovchilari soni




2017 yilda Farg'ona viloyatida hayvonot bog'lari soni 1 ta, uning umumiy maydoni 3.2 gektar bo'lib, hayvonot dunyosi turlari soni 88 tadir. Dam oluvchilar tomonidan qatnovlar 160 ming kishi bo'lib, ulardan 121 tani bolalar tashkil qiladi.

**2017 yilda hayvonot bog`larining o`simlik va hayvonot dunyosi turlari soni**




2017 yilda madaniyat va istirohat boglari Farg`ona viloyatida 18 ta, ularni umumiy maydoni 76.7 gektarni tashkil etadi. Viloyatda dam olish ob`ektlari soni 63 ta, atraksionlar soni 163 tadir. Madaniyat va istirohat boglariga jami qatnovlar soni 921.3 ming kishi bo`lib, shu jumladan bolalar tomonidan qatnovlar soni 676.3 dir.


**2017 yilda hududlar bo`yicha madaniyat va istirohat bog`lari faoliyati**



**2017 yilda hududlar bo'yicha madaniyat va istirohat bog'larining madaniy dam olish va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishlari**



**2017 yilda madaniyat va aholi dam olish markazlari tomonidan o'tkazilgan tadbirlar soni**




**Tadbirlar sonining turlari bo`yicha taqsimlanishi:**



2017 yilda Farg`ona viloyatida kutubxona muassasalari soni 318 ta, kutubxona fondi 4872.1 ming nusxani tashkil etib, kutubxonalardan foydalanuvchilar soni 603.5 ming kishidir, foydalanishga berilgan kitob va jurnallar esa 13794.7 ming nusxani tashkil etadi.

7-rasm

**O`rtacha bitta foydalanuvchiga to`g`ri keladigan foydalanishga berilgan kitob va jurnallar soni, birlik**



**2018 yil 1 yanvar xolatiga kutubxona muassasalari soni**



Farg`ona viloyatida muzeylar soni 14 ta, muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni 385.6 ming kishi bo`lib, ulardan o`quvchi va talabalar soni 279.7 ta. Muzeyda o`qilgan ma`ruzalar soni 1859 ta, ko`rgazmalar soni esa 406 ta. Farg`ona viloyatida muzeylar tomonidan tashkil etilgan ekskursiyalar soni 9849 ta bo`lib, qatnashganlar soni 147.5 ming kishi.

**2017 yilda muzeylar fondlari**

